



Tadqiqot **UZ**



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Abdullayeva Sayyora Nuriddinovna TURKISTON GENERAL - GUBERNATORLIGINING TASHKIL ETILISHI.....	7
2. Faryozbek Mamatazizov MUSTAQILLIK YILLARIDA DIPLOMATIK XIZMATNING XALQARO MUNOSABATLARIDAGI O'RNI.....	9
3. Nasimova Umida Hamdam qizi YANGI DAVRDA KAVKAZNING ROSSIYA UCHUN AHAMIYATI.....	11
4. Berdiyeva Lola Abduvohitovna O'QUVCHILARGA TARIX FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH.....	13



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

TURKISTON GENERAL - GUBERNATORLIGINING TASHKIL ETILISHI

Abdullayeva Sayyora Nuriddinovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
6-son umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining istilochilik harakatlari natijasida Turkiston general-gubernatorligining tashkil qilinishi va uning chegaralari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston general gubernatorligi, O'rta Osiyo, Rossiya imperiyasi, Kaufman, Turkiston viloyati.

O'rta Osiyoni o'z mustamlakasiga aylantirish maqsadida Rossiya imperiyasining olib borgan harbiy istilochilik yurishlari natijasida uning katta hududlari bosib olindi. Yo'qotishlar va talafotlarga qaramay, imperator Aleksandr II ning buyrug'i bilan navbatdagi harbiy rejalarini amalga oshirish davom ettirildi.

1865-yilda tashkil qilingan Turkiston viloyati O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarni olib borishda harbiy markaz rolini bajardi. Navbatdagi vazifa bosib olingan hududlarda podsho hukumati hukmronligini mustahkamlash va ma'muriy hududiy birliklarni tashkil qilishdan iborat edi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun bosib olingan joylarni o'z ichiga oluvchi ma'muriy-boshqaruv hudud, ya'ni alohida general-gubernatorlik tashkil etishga kirishildi. Buning sababi O'rta Osiyoning Orenburg general-gubernatorligidan uzoqda joylashganligi bo'lsa, boshqa yana bir sababi bu kelgusida bosib olinadigan yerlarni ham birlashtirish bo'lgan. Bu hududlarning imperiya tarkibida yana bitta general-gubernatorlik tashkil qilish uchun aholisi va hududi to'g'ri kelgan. Shu bilan birga O'rta Osiyoda alohida general-gubernatorlikni tashkil qilish orqali uning geografik xususiyatlari, iqtisodi, tabiiy boyliklari, mineral resurslarini imperiya manfaatlariga har tomonlama moslashtirish edi.

1867-yilda bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi va Turkiston harbiy okrugi tuzildi. 1847-yildan boshlab harbiy istilochilik yurishlarida ishtirok etgan barcha harbiy qismlar uning tarkibiga kiritildi. Bu davrda Turkiston harbiy okugidagi harbiylar soni 40 ming kishidan iborat bo'lgan. Toshkent shahri general gubernatorlikning markazi qilib belgilandi. U qulay geografik makonda joylashgan bo'lib, harbiy, siyosiy, strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarga ega edi.

Turkiston general-gubernatori o'lkada joylashgan harbiy qo'shinlar qo'mondoni, Yettisuv kazaklari qismi qo'mondoni va shu bilan birga bosh sudya ham hisoblangan. Turkiston general-gubernatorligiga 1867-yil Rossiya imperatori farmoniga ko'ra general-adyutant Konstantin Petrovich fon Kaufman (1867—1881) tayinlandi. U bir paytning o'zida Turkiston harbiy okrugining qo'mondoni ham edi.

Turkiston general-gubernatorligi Turkiston viloyati va Semipalatinsk viloyatining janubiy qismini ham o'z ichiga oldi. Dastlab Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy jihatdan ikkita viloyat: Sirdaryo (markazi - Toshkent) va Yettisuv (markazi - Vemiy) viloyatlariga bo'lingan. Sirdaryo viloyatining hududiga, asosan, 1865-yilda tashkil qilingan Turkiston viloyatiga tegishli bo'lgan yerlar va Qo'qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Olatavsk okrugi yerlari va sobiq Turkiston viloyatining bir qismidan iborat holda tashkil qilindi. Bosib olingan hududlar hisobiga keyinchalik quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar vujudga kelgan: 1868 - yilda Buxoro amirligiga qarashli yerlarda Zarafshon okrugi (markazi Samarqand), 1873-yilda Xiva xonligiga qarashli hududlarda Amudaryo bo'limi (markazi - Petro-Aleksandrovsk; hozirgi To'rtko'l) va 1876-yilda Farg'ona viloyati (markazi - Yangi Marg'ilon, keyinchalik Skobelev - hozirgi Farg'ona shahri), 1881



-yilda Kaspiyorti viloyati (markazi – Ashxobod shahri) tashkil qilingan.

Turkiston o'lkasidagi viloyatlarning hududlari katta bo'lgan. Ularning maydoni Rossiyaning ayrim markaziy guberniyalarining hududidan ham katta bo'lgan. Jumladan, o'lkadagi viloyatlarning hududiy jihatdan eng kichigi bo'lgan Samarqand viloyatining maydoni 2000 kv. verst (1 verst - 1,066 km ga teng) bo'lib, u Saratov guberniyasidan, Sirdaryo viloyatining hududi esa Moskva guberniyasidan katta bo'lgan.

Turkiston general-gubernatori 1867-yilgi “Nizom” loyihasida ko'rsatilgan huquqlardan tashqari o'lkani boshqarish uchun mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda mustaqil faoliyat olib borishda katta huquqlarga ega bo'lgan.

Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining boshqa guberniya boshliqlaridan farqli ravishda siyosiy, iqtisodiy, harbiy va geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirishda K. P. Kaufmanga katta vakolatlar berilgan. Shuning uchun u xalq orasida “yarim podsho” nomini olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Tillaboyev, A.Zamonov O'zbekiston tarixi. Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik.
2. www.ziyouz.com
3. www.tarix.uz



MUSTAQILLIK YILLARIDA DIPLOMATIK XIZMATNING XALQARO MUNOSABATLARIDAGI O'RNI.

Faryozbek Mamatazizov

O'zMU tarix fakulteti II kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik yillarida diplomatik xizmatning o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mustaqillik davrining diplomatik holati va davlatimiz tarixida tutgan o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: diplomatiya, davlat, xalqaro munosabat, vakolat, qabulxona

Tariximizda hozirgi kunda Mustaqillik davrimizda barcha asrlarda Jamiyatning rivojlanishida davlatlar tashqi siyosatining barcha masalalarini o'zida jamlagan diplomatik xizmat soxasi doimo aloxida o'rin tutgan. Chunki ko'p xollarda butun bir munosabatlar xalq davlatlarning taqdiri ularning tashqi siyosati, xalqaro munosabatlar tizimida tutgann o'rni va pozitsiyasiga bevosita aloqadordir. Davlatlar va xalqlarning o'zaro munosabatlari bilan bog'liq muammolar jahon taraqqiyoti markazida turgan bizning davrimizda xalqaro munosabatlar tashqi siyosat va diplomatik xizmat masalalari aloxida muxim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur muammolarning xalq etilishini mintaqalarning ko'p millionli xalqlari faol ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin mazkur xalqlarning manfaatlari bu masalarning xalq qilinishiga bog'liqdir. "Davlatimizning tashqi siyosati xaqida so'z yuritar ekanmiz, 2017-yil bu borada ko'p jixatdan muvafaqqiyatli bo'lganini mamnuniyat bilan qayd etish o'rinlidir. Yaqinda Qozog'iston bilan muntazam avtobus qatnovi yo'lga qo'yildi. Kecha uzoq yillardan buyon birinchi marotaba O'zbekiston bosh vazirining Tojikistonga tashrifi bo'lib o'tdi. Rossiya mustaqil davlati xamdo'stligining boshqa mamlakatlari Xitoy, AQSH, Janubiy Koreya, Turkiya shuningdek, Yevropa va Osiyo qit'alaridagi bir qator davlatlar bilan xamkorligimizni sezilarli darajada mustahkamladik. Birlashgan millatlar tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va xamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar va moliyaviy institutlar bilan sherikligimiz sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Biz xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infrastruktura investitsiyalari banki bilan xamkorlikni yangicha asosda yo'lga qo'ydik. O'tgan yili xorijiy sheriklarimiz bilan 200 dan ortiq xalqaro shartnomalar shuningdek savdo iqtisodiy va investitsiyaviy soxalarida qiymati qariyab 60 milliard dollarlik kelishuv va bitimlar imzolandi. Chet el mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan amaliy xamkorlikni rivojlantirish bo'yicha 40dan ortiq 'yo'l xaritalari' tasdiqlandi. Dunyodagi diplomatiyaga oid eng zo'r kitoblar ham aslida sharqda jumladan bizning zaminimizda yaratilgan, desak, adashmagan bo'lamiz.¹ Shu navbatda davlatlar o'rtasidagi munozarali masalalarning tinch yo'l bilan xalq etilishi va insoniyat xayotidan yangi jahon urushi xavfini batamom yo'qotish xaqida so'z bormoqda oxirgi paytlarda dunyoning turli nuqtalarida urushlar va qurolli to'qnashuvlar ro'y berib turibdi. Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni xolisona baxolar ekanmiz keskinlik va xavf xatarlarning tobora o'sib geosiyosiy qarama qarshiliklar o'z ta'sir doirasini kengaytirish qaratilgan kurashning radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi taxdidlarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo'ymaydi albatta".² Hozirgi dunyoda vujudga kelgan obyektiv sharoitlar davlatlar tashqi siyosatida munozarali xalqaro masalalarni tinch yo'l bilan xalq etish va xarbiy to'qnashuvlarni bartaraf qilishga kata ahamiyat berishni talab qilmoqda ana shunday vositalardan biri bu tashqi siyosatning asosiy qurolli bo'lgan diplomatik xizmat sohasi va uning xalqaro masalalarni tinch yo'l bilan xalq etish usullari xisoblanadi. Diplomatiya –davlatning tashqi siyosati va xalqaro faoliyatining tarkibiy qismidir. Diplomatiya xizmati –davlatning diplomatiya bo'yicha vazifalarini bajaruvchi markaziy apparatning va chet ellarda ishlaydigan diplomatik kadrlarning faoliyat soxasidir.³ Shuningdek diplomatik xizmatni bunday talqin qilishimiz mumkun

¹ Shavkat Mirziyoyev Xalqimizning Roziligi Bizning Faoliyatimizga Berilgan Eng oliy Baxodir. Toshkent, O'zbekiston-2018 2 kitob 278-280 betlar.

² Karimov . I .A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish –eng oliy saodatdir . Toshkent, O'zbekiston ,2015,273-bet

³ Raximbaeva D.V. O'zbekistonda diplomatiya xizmatining shakllanish va rivojlanish tarixi / Toshkent -2007 3-bet.



markaziy apparat xorijdagi elchixonona va vakolatxonalaridagi diplomatik kadrlarning davlat diplomatiyasi vazifalarini bajarish bo'yicha faoliyatlari hamda davlatning tashqi siyosiy faoliyati, tashqi ishlar va xalqaro munosabatlar tizimini o'z ichiga oluvchi butun bir mexanizmni aglatadi. Diplomatik xizmat o'z mazmuniga ko'ra davlatlar va boshqa xalqaro subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish imkoniyatini bildiradi. Yaxshi tashkil qilingan diplomatik xizmat davlat xizmatini ajralmas qismi sifatida davlatning o'z funksiyalarini bajarish xalqaro maydonda davlat siyosatining strategik va taktik masalalarini xalqaro etishdagi muxim shartlaridan biridir. Xalqaro xokimiyatning boshqa subyektlari bilan do'stona munosabatlarni o'rnatishga erishishda diplomatik xizmat sohasidan xavfsizlik va barqarorlik g'oyalarning asoschisi bo'lish talab etiladi. Diplomatik xizmat siyosiy iqtisodiy savdo ilmiy madaniy va boshqa sohalaridagi taktik –strategik xamkorlikni vujudga keltirish va xamjixatlikni yo'lga qo'yishda muxim omil hisoblanadi. Diplomatik xizmat xalqaro munosabatlar tizimida davlat manfaatlarini ro'yobga chiqarish vositasi sifatida juda uzoq yo'lni bosib o'tdi. Ko'p asrlik tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki davlatlar nafaqat o'zining iqtisodiy qudrati ilmiy texnik va xarbiy salohiyati bilan balki o'zining diplomatiyasi mukammal va mustaxkam diplomatik xizmati malakali va o'quvli kadrlar zaxirasi bilan ham kuchlidir. Xozirgi galoballshuv sharoitidagi zamonaviy diplomatik xizmat o'z ichiga davlatlar davlat va xukumat boshliqlarining tashqi siyosiy faoliyati tashqi ishlar idoralari va chet el davlatlardagi diplomatik vakillar faoliyatini jamlaydi zamonaviy diplomatik xizmatning asosiy vositasi bu muzokara kelishuv va muammolarni xalqaro etishda manfaatlar xamoxangligi nuqtasini topish hisoblanadi. So'nggi yillarda diplomatik xizmatning axamiyati ayniqsa o'sdi. Chunki tashqi siyosat ommaviy axborot vositalari xamda keng jamoatchilik diqqat markazidan joy oldi tinchlikni saqlash va xalqaro aloqalarni do'stona asosda ko'rish o'ta muxim axamiyat kasb etadi. Shunday ekan aynan yaxshi tashkil etilgan va barqaror rivojlanish istiqboliga ega bo'lgan diplomatik xizmat davlatning tashqi siyosiy masalalarini xalqaro etishdagi muvafaqqiyatini belgilab beradi. Xozirgi kunda O'zbekistonning diplomatik aloqalari ancha jadallashgan xolda rivojlanib kelmoqda mustaqil tashqi siyosat olib borish o'z tarraqiyot yo'lini belgilash jahon hamjamiyatiga kirib borish davlatlararo munosabatlar yo'nalishi va ustuvorligini belgilash uni yanada rivojlantirish tinch –totuv yashash tamoyillarini barqarorlashtirish teng xuquqli davlatlararo munosabatlar o'zaro manfaatli xamkorlik keng miqyosdagi ichki va tashqi muammolarni xalqaro etishga imkon beradi. Bunga albatta 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinganidan keyinla erishildi. Bor yog'i bir necha yil ichida O'zbekiston samarali tashqi siyosat yuritishi oqibatida xalqaro munosabatlarning haqiqiy subyektiga aylandi va o'z milliy manfaatlarini ximoya qilib qolmasdan balki ularni yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. Mustaqillikka erishilgan davrdan boshlab to xozirgi kungacha O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatik xizmatiga oid ko'plab ishlar qilindi Tashqi siyosat bilan bog'liq bir qator xujjatlar shartnoma va bitimlar imzolandi ko'pgina xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama diplomatik vakolatxonalar ochish jarayoni davom etmoqda. O'zbekistonda diplomatik sohaga e'tibor kundan kunga rivojlanib bormoqda. Davlatimizning boshqa davlatlar bilan olib borayotgan tashqi aloqalari jadallashib bormoqda.



YANGI DAVRDA KAVKAZNING ROSSIYA UCHUN AHAMIYATI

Nasimova Umida Hamdam qizi
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani
52-IDUMI II toifali Tarix fani o'qituvchisi

Anotatsiya: Bugungi kunda Rossiyaning Kavkaz bilan munosabatlari, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjonning jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lish uchun olib borayotgan harakatlari.

Kalit so'zlar: Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Dog'iston, BTC, NATO, Domino nazariyasi.

Rossiyaning 90-yillardagi kuchsizligi mojarolarning avj olishiga va uning yaqin atrofidagi vaziyatning yanada beqarorlashishiga yo'l qo'ymaslik uchun G'arb davlatlari bilan hamkorlik qilish hali ham qulay ekanligini anglatardi. Biroq 2000-yillarga kelib, ruslar nuqtai nazari Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO), AQSh (AQSh) va Evropa Ittifoqi (EI) bilan mintaqaviy ta'sir uchun raqobatga o'zgardi. Raqobat 2008-yilda Rossiya-Gruziya urushi tufayli davom etdi va 2014-yil boshida Ukraina atrofidagi inqirozning tarqalishi tufayli kuchaydi.

Kavkaz mintaqasi Rossiya uchun kamida beshta sababga ko'ra muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, mintaqa Yevropa qit'asini Yaqin Sharq bilan, Qora dengizni Kaspiy dengizi bilan bog'lashda katta geografik strategik ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, Kaspiy dengizida topilgan energiya boyliklarini Rossiyani chetlab, Ozarbayjon va Gruziya orqali Turkiyaga o'tadigan Boku-Tbilisi-Jayhon (BTC) neft quvuri va Janubiy Kavkaz quvur liniyasi (gaz) orqali yuborilishini hisobga olgan holda juda muhimdir.

Ikkinchidan, mintaqa Tog'li Qorabog', Abxaziya va Janubiy Osetiyadagi hal qilinmagan to'qnashuvlar sahnasi bo'lib, ular eskalatsiyani kuchaytirishi mumkin. Xususan, Tog'li Qorabog'dagi mojaro 2014 yildan qurolli hodisalar soni ko'paya boshlagani, 2020 yil kuz oylarida "qirq to'rt kunlik urush" natijasida ushbu mintaqadagi kuchlar nisbati boshqa tomonga o'zgargan bo'lsa ham, Rossiya hududda geosiyosiy ta'sirini saqlab qoldi. Postsovet hududidagi hal qilinmagan mojarolar Rossiyaga bu ma'noda foyda keltiradi. Bu, ayniqsa, Janubiy Osetiya va Abxaziya haqida gap ketganda o'z isbotini topadi. Garchi ushbu mojarolar Gruziyaning Evropa Ittifoqi va NATO bilan aloqalarini kuchaytirishni to'xtata olmagan bo'lsada, Gruziyaning ushbu G'arb tashkilotlariga a'zo bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda. Chunki NATO, qo'shnilari bilan hal qilinmagan ziddiyatlarga ega bo'lgan yangi a'zolari qabul qilmaydi.

Uchinchidan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Janubiy Kavkaz hali ham Moskva tomonidan Rossiya va G'arb o'rtasidagi raqobat masalasi sifatida qabul qilinmoqda. Uchta Janubiy Kavkaz davlatlari Rossiya va G'arb bilan munosabatlarda turli pozitsiyalarni egallashgan. Gruziya uchun Rossiyaga nisbatan qo'rquv va tahdid tushunchalari, Evropa Ittifoqi va NATO bilan yaqinroq munosabatda bo'lish istagini kuchaytirdi. Armaniston o'z iqtisodiyoti va xavfsizligini Rossiya bilan bog'lab, teskari pozitsiyani egalladi. Rossiyaning Armanistonda harbiy bazasi bor va Rossiyaning Chegara qo'shinlari Armanistonning NATO davlati bo'lgan Turkiya bilan chegarasini qo'riqlaydi. Ozarbayjon, nihoyat, o'rtada, har ikki tomondan ham masofani saqlaydi, bu esa o'zining katta energiya zaxiralari tufayli yuzaga keladi. To'rtinchidan, Kavkaz etnik guruhlarining xilma-xilligi uchun ham muhimdir. Mintaqada 50 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi, ularning aksariyati o'ziga xos tili, madaniyati va an'analariga ega. Ushbu etnik guruhlarining mozaikasi butun tarix davomida, ayniqsa Rossiyaning Shimoliy Kavkazida, Rossiyaning 19-asrda mintaqani turklardan bosib olishidan tortib, 1990-yillar va 2000-yillarning boshlaridagi ikki chechen urushiga qadar siyosiy tartibsizliklarni keltirib chiqardi. Moskva uchun bu Shimoliy Kavkaz respublikalarining Rossiyaning to'rtta rasmiy dinga, xususan Islomga ega bo'lishiga qaramay, pravoslav nasroniylikni tobora ko'proq ta'kidlayotgan Rossiya siyosatiga qarshi kurashni anglatadi.

Bundan tashqari, Rossiyada keng tarqalgan "domino nazariyasi" mavjud bo'lib, unga ko'ra Shimoliy Kavkazda Rossiyaning hududiy yaxlitligi xavf ostida. Shimoliy Kavkazdagi ajralib chiqishning har qanday turi, diniy, etnik qo'zg'olonlar va ayirmachilik harakatlari shunga o'xshash bosimni keltirib chiqarishi mumkin. Shimoliy Kavkazning etnik mozaikasi bu hududni Janubiy Kavkaz bilan bog'laydigan omil bo'lib, bu omil Rossiyaning Janubiy Kavkazda ham hukmronlik qilishga qiziqishini oshiradi. Janubiy Kavkazda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan urush, ba'zi xalqlar (Dog'iston va Ozarbayjonda lezginlar, ozarbayjonlar va avarlar, Shimoliy



va Janubiy Osetiyada osetinlar va boshqalar) Buyuk Kavkaz tog' tizmalarining ikkala tomonida yashaganligi sababli, shimolga tarqalishi mumkin. Shuning uchun, Rossiyada esgidan gap bor: "Shimoliy Kavkazni boshqarishni istagan kishi Janubni ham boshqarishi kerak".

Beshinchidan, mintaqaning Yaqin Sharqqa yaqinligi va yaqinda sodir bo'lgan Suriya va Iroqdagi urushlar Kavkazda tobora muhim rol o'ynamoqda. Asosiy harakatdagi kuch - bu islomiy ekstremizm. Rossiya Sovet Ittifoqi qulaganidan beri Shimoliy Kavkazdagi islomiy ekstremizmga qarshi kurashmoqda. 2014 yil, "Islomiy davlat" (IShID) Kavkazni ustuvor mintaq va qiziqish doirasi deb e'lon qilganidan beri, Jihodiy jangchilarining Kavkazdan Yaqin Sharqda jang qilish uchun ketishi va ehtimol, o'z mahallalarida kurashni davom ettirish uchun qaytib kelishlari Rossiyada ham, Janubiy Kavkazda ham kun tartibiga kiritilgan masala sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Fischer, Sabine (ed.) (2016) Dondurulmamiş: Ukrainadagi inqirozni inobatga olgan holda Dnestryani, Abxaziya, Janubiy Osetiya va Tog'li Qorabog' to'g'risidagi hal qilinmagan mojalar, tadqiqot ishi, Berlin: Germaniya xalqaro va xavfsizlik ishlari instituti.
2. Blank, Stiven va Kim Younkyoo (2016) "Shimoliy Kavkaz: Rossiyaning boshqa urushi", Slavyan harbiy tadqiqotlar jurnali, jild. 29, № 2, 197-bet.
3. Sherr, Jeyms (2017) Korneldagi "Eski va yangi geosiyosat o'rtasidagi Tog'li Qorabog'", Svante E. (tahr.) Armaniston-Ozarbayjon mojarosining xalqaro siyosati: "Muzlatilgan mojaro" va Evropa xavfsizligi, Nyu-York: Palgrave Makmillan.
4. Markedonov, Sergey (2015) "Islamskoe gosudarstvo: Ugroza dlya bolshogo Kavkaza", Rossiya Xalqaro ishlar kengashi, 9-noyabr, http://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/islamskoe-gosudarstvo-ugroza-dlya-bolshogo-kavkaza/?phrase_id=1833977 (kirish 12-noyabr 2020-yil).



O'QUVCHILARGA TARIX FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Berdiyeva Lola Abduvohitovna

Toshkent shahar Chilonzor tumani

232-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tarixni oqitishda innovatsion texnologiyalar, interfaol pedagogik metodlar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'z: innovatsiya, texnologiya, pedagogik texnologiya, interfaol ta'lim, pedagogik mahorat.

Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bolib, uni amalgam oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Interfaol ("Inter"-bu o'zaro, "ast"- harakat qilmoq) -o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bolishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bolib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan boladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat korsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bolib, ularga: -o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi; -o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikini ta'minlanishi; -o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi; -pedagog va o'quvchlarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari mumkin.

Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda:

1. O'quvchining o'zaro faolligi oshadi, hamkor, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.
2. Ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.
3. O'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.
4. Eng muhimi o'quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya'ni o'quvchining ehtiyoj, xohish, istagi qondiriladi. O'quv-biluv jarayonida o'quvchining manfaatdorligi oshadi.

Bu holat o'quvchini o'quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga kotaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Teaching methods of history T.2020

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
